EKVIVALENTLIK NAZARIYASINING TARJIMA JARAYONIDAGI O‘RNI

Fatxutdinova Iroda Atxamovna
Tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
Orcid id: 0000-0001-6869-3702

Annotatsiya
Mazkur maqolada zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik tushunchasining nazariy asoslari, uning lingvistik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan turlicha talqin qilinishi, hamda hindiy tilidan o‘zbek tiliga nasriy tarjimada ekvivalentlikka erishish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ekvivalentlik tushunchasining tarjima nazariyasidagi markaziy o‘rni asoslangan bo‘lib, uning to‘liq tenglik va almashtirish orqali erishish kabi ikki asosiy nuqtai nazari tahlil qilingan. Shuningdek, ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari o‘rtasidagi nozik farqlar, ekvivalentlikning semantik, stilistik va kommunikativ jihatlari Bhisham Sahniy asarlaridan olingan misollar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, ekvivalentlik, adekvatlik, muqobillik, nasriy tarjima, kommunikativ ekvivalentlik, semantik ekvivalentlik, stilistik ekvivalentlik, frazeologik birliklar.*

KIRISH

Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasi nazariy va amaliy tadqiqotlarning markazida turgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslik va tarjimashunoslik lug‘atlarida ekvivalent tushunchasi turlicha izohlangan bo‘lib, “ekvivalent” umumiy ma’noda qiymat, kuch va ma’no jihatidan “tenglikni” anglatadi hamda madaniy va lingvistik uyg‘unlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu tushunchaning zamonaviy tarjimashunoslikka qachon va kim tomonidan kiritilgani bahs-munozaralarga sabab bo‘lib, turlicha yondashuvlar mavjudligi kuzatildi.

Hindiy tilidan o‘zbek tiliga badiiy nasr tarjimasida ekvivalentlikka erishish masalasi tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik sohalarining kesishmasida turadi. Ushbu masalaning dolzarbligi shundaki, hindiy va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularning grammatik tizimi, leksik tarkibi va madaniy konnotativ fonlari sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli tarjimon oldida asliyatdagi mazmuniy, uslubiy va kommunikativ axborotni o‘zbek o‘quvchisiga to‘liq yetkazib berish vazifasi turadi.

Tarjimashunoslar ekvivalentlik masalasiga tarjimada til me’yorlariga qat’iy amal qilish va asosiy mazmunni saqlab qolish eng muhim vazifa deya hisoblab, bu yondashuv ekvivalent tarjimaning asosiy o‘rni sifatida qabul qilingan. Ekvivalent tushunchasi tenglikni anglatgani uchun bu yerda ikki asosiy nuqtai nazar mavjud: birinchidan, ekvivalentlik to‘liq tenglikka asoslanishi – ya’ni tarjima qilinayotgan matnning so‘zma-so‘z ekvivalentini topish, lekin ba’zan bu imkonsiz bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, ekvivalentlikka almashtirish orqali erishilishi – bunda matnning ma’nosi va ta’siri saqlanib, mos til vositalari bilan ifodalanadi. Demak, tarjima faqatgina so‘zma-so‘z moslik emas, balki mazmunni samarali ifodalashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Sharq tillarida ekvivalentlik tushunchasi o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, marathi tilida ekvivalentlik tushunchasi *पर्यायीशब्द* [paryayishabd],

ya’ni muqobil so‘z, yoki aniqroq *प्रतिशब्द* [pratishabd] so‘zma-so‘z tarjima deya talqin qilingan. Bu yerda *शब्द* [shabd] so‘zi hindiy va marathi tillarida so‘z ma’nosini berish uchun qo‘llanilgan, lekin bu tushuncha faqat so‘z va iboralar bilan cheklanmay, balki gaplar, matn bo‘laklari va butun matn ham ushbu ekvivalentlik doirasiga kira oladi [5, P.36]. Hindiy tilida ekvivalentlik tushunchasi semantik jihatdan tenglik va qiyoslanish asosiga qurilgan bo‘lib, bu G‘arb tarjimashunosligidagi ekvivalentlik konsepsiyasi bilan mohiyatan hamohangdir.

Ekvivalentlikni faqat “tenglik” sifatida tushunish yetarli emas, negaki u matnning mazmuni, uslubi, ta’siri va kommunikativ ahamiyatini saqlash uchun strategik yondashuvni talab qiladi. So‘zma-so‘z tarjima ba’zan matnning asl ma’nosini buzilishiga olib keladi. Shu bois tarjimon mazmunni va madaniy kontekstni hisobga olib, uni moslashtirish orqali chinakam ekvivalentlikka erishishi mumkin. Tarjima nafaqat til o‘zgarishi, balki fikr va his-tuyg‘ularning boshqa til vositalari orqali ifodalanish hamdir.

Frazeologik birliklar tarjimasida ekvivalentlik.

Nazariyotchilardan J.P. Vinay va J. Darbelnetlar V. Vinogradovning fikrlariga mos ravishda badiiy tarjimada frazeologik birliklarni ekvivalentlar yordamida tarjima qilish eng samarali usullardan biri deb hisoblagan [4, P.157]. Ekvivalentlar matnning semantik mazmunini aks ettirish bilan birga, iboralarning obrazli asoslarini ham bir-biriga moslashtiradi va bu stilistik funksiya jihatidan tarjima matnining asliyatga yaqinligini ta’minlaydi.

Misol uchun: तुम मर्द लोग खरगोश की तरह डरते-कांपते ही रहोगे [7, P.13] [tum mard log khargosh ki tarah ḍarte-kāmpte hi rahoge]. Tarjimasi: *“Erkak bo‘lsalaring ham o‘lgudek quyonyuraksanlar” [1, B.15]*. Bu iborada tarjimon funksional-semantik ekvivalentlikka erishish maqsadida ijodiy yondashuvdan foydalangan. Hindiy tilidagi *खरगोश की तरह डरना-कांपना* (quyondek qo‘rqib-titrash) erkin qiyoslash konstruksiyasi o‘zbek tilida *“quyonyurak”* kompozit leksemasi orqali ifodalangan. Garchi har ikki tilning lingvistik shakli farqlansa-da, quyon obrazining qo‘rqoqlik ramzi sifatida har ikki xalq mentalitetida mushtarak qo‘llanilishi xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi yaqinlikni belgilaydi.

Tarjimon asliyatdagi *डरते-कांपते ही रहोगे* (qo‘rqib-titrab qolaverasiz) iborasini *“o‘lgudek quyonyuraksanlar”* deb berish orqali kuchaytirish (intensifikatsiya) usulini qo‘llagan. Asliyatda mavjud bo‘lmagan *“o‘lgudek”* so‘zining tarjimaga kiritilishi o‘zbek o‘quvchisining ekspressiv-emotsional kutishlariga moslashtirish maqsadini ko‘zlaydi. Shunday qilib, tarjima saviyasiga putur yetmagan holda asosiy ma’noni berish va hatto kuchaytirish bilan ham ekvivalentlikka erishish mumkin. Biroq, ekvivalentlar yordamida amalga oshirilgan tarjimada frazeologik birliklarning stilistik va madaniy funksiyalarini chuqur tushunmaslik adekvatlikka erishishni qiyinlashtirishi mumkin. Demak, ekvivalentlik tamoyilini qo‘llashda tarjimon matnning ma’nosi, g‘oyasi va stilistik xususiyatlarini to‘liq anglagan holda ish olib borishi zarur.

Ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari nisbati.

Ekvivalentlik tarjima matnining asliyat bilan semantik va stilistik jihatdan mos kelishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda til birliklarining aniq

ekvivalentlari izlanadi hamda lingvistik tuzilmalarning imkon qadar aynan mos kelishi ko‘zda tutiladi. Adekvatlik esa tarjima matnining kommunikativ maqsadga muvofiqligini anglatadi: matnning belgilangan auditoriya va kontekstga mos kelishi muhim bo‘lib, tarjimon ba’zan ekvivalentlikdan voz kechib, matnning maqsadli auditoriyaga ta’sirini oshirish uchun moslashtirishga ehtiyoj sezadi. Bu usul ko‘proq funksional tarjima yondashuvlarida qo‘llanadi [2, B.18].

Adekvatlik va ekvivalentlik yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ularning mohiyati farqlanadi. Ekvivalentlik turli strukturaviy-semantik xarakteristika va madaniy konnotativ fonga ega tillardagi matnlarning o‘xshashligini izohlovchi murakkab tushuncha bo‘lib, bu o‘xshashlik ko‘pincha *“muqobillik”* yoki *“analoglar”* deb ham yuritiladi. Tarjimon mukammal va asliyatga monand tarjimaga erishish uchun nafaqat to‘g‘ri muqobilini, balki matnning mazmun-maqsadini, aynan nimani ifodalayotganini ham ko‘rsata bilishi lozim - ana shundagina haqiqiy tarjimaga erishadi.

Ekvivalentlik nazariyasining tarjima jarayonidagi o‘rni.

Ekvivalentlik tarjimada lingvistik, ijtimoiy, madaniy, sintaktik va uslubiy jihatdan qo‘llanilib, lug‘aviy kontekstdan tashqari yanada kengroq ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida to‘g‘ri ekvivalentlarni tanlash mazmun va uslubning aniqligi hamda o‘quvchi uchun ta’sirchanlikni ta’minlaydigan eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, tarjimonning mahorati va bilimini namoyon etadi [3,C.51]. Ekvivalentlik nazariyasi tillararo xoslashuvning eng samarali usullarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, matn mazmuni, uslubi va vazifalarini bir tildan boshqasiga o‘tkazishda asosiy yo‘l-yo‘riq hisoblanadi.

Tilshunoslik sohasidagi nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekvivalentlik juda keng va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uni turli darajalarda baholash mumkin [5, P.33]. Tarjimaning muvaffaqiyati lingvistik, estetik, leksik, semantik va sintaktik jihatlarga bog‘liq bo‘lib, ushbu mezonlar to‘liq ta’minlanganda matn asliyatga sodiq va samarali tarzda o‘tkazilgan hisoblanadi. Tarjimashunoslar tomonidan ekvivalentlik asliyat va tarjima matn o‘rtasida mavjud mazmuniy, uslubiy, vazifaviy va kommunikativ axborotning nisbiy va teng muvofiqligi sifatida bir ovozdan e’tirof etilgan.

Semantik va stilistik ekvivalentlikning amaliyotda namoyon bo‘lishi.

Matnni kitobxon qanday tushunishi va ta’sirlanishi tarjimon uchun muhim masaladir. Manba matn maqsadli tilga tarjima qilinayotganda uning mazmuni, uslubi va funksiyasi to‘liq saqlanishi semantik ekvivalentlik nuqtai nazarida qo‘llaniladi: ya’ni manba matn (MM) tarjima qilinayotganda maqsad tilidagi matn (MTM) unga to‘liq sodiq bo‘lishi lozim (MM=MTM). Biroq, mutlaq sodiqlik har doim ham amaliy bo‘la olmaydi, chunki til va madaniy kontekstlar farqlanadi, bunday yondashuv ba’zan dinamik ekvivalentlik yoki pragmatik moslik tamoyillariga zid kelishi mumkin [6, P.56].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarjimon so‘zma-so‘zlikdan voz kechib, o‘zbek tilining stilistik, emotsional va pragmatik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, asl matnning kommunikativ niyatini saqlab qolgan. Bunday yondashuv stilistik ekvivalentlikning amaliy ifodasidir. Tarjima jarayoni asl matnning yangi auditoriya uchun qayta aktualizatsiya qilinishi sifatida namoyon bo‘lib, unda mazmuniy va uslubiy muvofiqlikni ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tarjimon o‘zbek tilining boy frazeologik zaxirasidan va lingvistik sezgirligi asosida hind tilidagi iboralarni o‘zbek

kitobxonining madaniy-estetik kutishlariga mos tarzda adaptatsiya qilishi muvaffaqiyatli tarjimaning asosiy mezonidir.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, nazariyotchilarning aksariyati “ekvivalentlik” tushunchasini mazmun va funksional vazifasi jihatidan “tenglik” sifatida ta’riflagan. Ekvivalentlik faqat til birliklarining formal mosligi bilan cheklanmay, balki ularning semantik va kommunikativ ta’sir jihatidan muvofiqligini ham o‘z ichiga oladi.

Ekvivalentlik tushunchasini ikki asosiy aspektda farqlash mumkin: birinchidan, u to‘liq bir xillikni anglatmaydi, ya’ni tarjima asliyat bilan identik bo‘lishi shart emas; ikkinchidan, ekvivalentlik umuman almashtirish emas, balki til birliklarining mazmun, kontekst va funksional vazifaga muvofiq kelishini ta’minlaydigan jarayondir. Shu bois ekvivalentlikni tarjimada konseptual va pragmatik moslikni ta’minlovchi, maksimal umumiylik va adekvatlikka erishishga xizmat qiluvchi markaziy tushuncha sifatida talqin qilish mumkin. O‘zbek tarjimashunoslari orasida ekvivalentlik bilan birga *“muqobillik”* tushunchasi ham bir-birining o‘rniga qo‘llaniladi.

Tarjima ekvivalentligining chegarasi tarjimada asliyat matni mazmunini maksimal saqlash darajasi hisoblanadi, biroq har bir alohida tarjimada mazmun yaqinligiga turli darajalarda va turli usullar bilan erishiladi. Asliyat matniga ekvivalentlik darajasini belgilash nisbiy tushuncha bo‘lib, *ekvivalentlik, muvofiqlik va adekvatlik* istilohlari bilan ifodalanadi. Ularning o‘rtasida aniq farqlarni belgilash masalasidagi bahslar hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Shunday qilib, ekvivalent birliklarni tanlashda semantik aniqlik, stilistik moslik va kommunikativ samaradorlikni saqlash muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv matnning badiiy-estetik va kommunikativ qiymatini mustahkamlaydi. Hindiydan o‘zbekchaga nasriy tarjimada ekvivalentlikka erishish jarayoni tarjimondan keng nazariy bilim, lingvistik sezgirlik va madaniyatlararo kompetensiyani talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Fayzulla. Basantiy – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2010.
2. Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011.
3. Komissarov V.N. Lingvistika perevoda. – M.: Mejdunarodniye otnosheniya, 1980.
4. Vinay J.P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology For Translation. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1995.
5. Datta G.S. Translating Fiction: Issues of Equivalences. – India, 2018.
6. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E.J. Brill, 1969.
7. भीषम साहनी. बसंती. – नवीन शाहदरा, नई दिल्ली, 1983.
8.Fatxutdinova I.A., Tarjimada semantik ekvivalentlik darajasining ahamiyati. Sharqshunoslik. ISSN 2181-8096. 2025, № 1. – P.106.
9. Fatxutdinova I.A., Tarjimada ekvivalentlik yondashuvlarining konseptual tahlili. Komparativistika. 2025. Vol.2, № 4(8). – B.284-295.